

**O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDА OILAVИY  
KELISHMOVCHILIKLARGA NISBATAN PSIXOLOGIK  
BARQARORLIK TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH**

*Eshimova Maftuna Boybòri qizi  
Surxondaryo viloyati Shòrchi tumani  
46-maktab amaliyotchi psixologи*

**Annotatsiya:** Shaxsning oilaviy nizolar tog'risidagi bilishlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lib ,tasavvurlar tuzilishining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U yoki bu obyekt yoxud hodisa haqida bilishning yo'qligi tasavvurning ham yo'qligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan ma'lumotlar va ular asosida shakillanayotgan bilishlar aniq yoki noaniq,to'g'ri yoki notog'ri bo'lib, biror narsa va hodisalar vositasida shakllanadi hamda bevosita ta'sir bo'lgani uchun ham tasavvurlar ana shunga muvofiq tegishli zaylda paydo bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** lider,ong, tafakkur, mulohaza yuritish, agressiya, ruhiy holat, tushkunlik, psixik taraqqiyot, ruhiy rivojlanish

### KIRISH

Fikrimizcha,o'smirlardagi nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning dinamik tabiatini tahlil qilish uchun ularning shakllanish bosqichlarining quyidagicha ajratish maqsadga muvofiqdir:Idrok qilish bosqichi,unda ongda bevosita aks etadigan ma'lumotlarning qabul qilinishi va o'smir (o'g'il,qiz)lar ahamiyatliligi nuqtai nazaridan saralanishi ro'y beradi.Masalan: oilaviy rollar taqsimoti va uning bajarilishi yuzasidan o'smir hatti-harakatidagi oila "lider"iga nisbatan anglanmagan intilish.Assotsatsiv bog'lanishlar bosqichi,bunda ongdagi yangi xabarlar eskilari bilan solishtirilib,assotsatsiv va ma'naviy bog'lanishlar o'rnatiladi. Masalan: qaynonaning keliniga nisbatan ko'rsatadigan har qanday salbiy munosabati o'smirni oilaning ileal "lider"iga nisbatan pozitsiyasini o'zgartirishga majbur qiladi.

Yuqoridagi ikki bosqich xususiyatlarining umumlashtirilishi obyekt haqidagi tasavvurlarning generalizatsiyasini keltirib chiqaradi. Ya'ni,yuzaga kelgan oilaviy nizolar ta'siriga o'smir ota-onasi xususidagi ijtimoiy tasavvurlarni tubdan isloh etadi. Natijada,oilaga doir har bir ma'sulyat yoki xabar diffensial holda o'smir uning ahamiyatlilik darajasida ajratiladi va shu asosda ma'lum ustanovkalar shaklida uning xulq-atvori yo'nalishini belgilaydi.

Ma'lumki,mentalitetimizda milliy qadryatlarga bo'ysunish bilan bir qatorda ,obro'-e'tiborga ega shaxslar va gruxlar fikriga ergashish ularni tanqidsiz qabul qilishga bo'lgan moillik kuchlidir.Shunday qilib tasavvurlarning shakllanish davrida o'smir bolalar noma'lum axborotlarni ma'lumlariga o'xshatib ,odatdagi tasavvurlari

qatoriga qo'shiladi, hamda subyektiv jihatdan, ularni o'ziga xos va yagona borliq ekanligini anglashga harakat qilishadi.

O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi va dinamikasini tahlil qilish orqali ularni quyidagi qator muhim xususiyatlarini ajratish imkoniyatiga ega bo'lamiz:

1. Ijtimoiy tasavvurlar, uning subyekti hisoblangan shaxs, sinf, guruh yoki millatning atrofdagi ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlariga bog'liq tarzda o'rganiladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti eng avvalo, fuqorolarning ma'naviy axloqiy yetukligi, ishlab chiqarish salohiyatiga egaligi bilan belgilanadi. Bozor munosabatlari sharoitida esa yuqori darajada intelektual qobiliyati, ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi munosabatni yo'lga qo'yish mahorati harakterining irodaviy xususiyatlari, inson matonati, shuningdek, kasbiy va kundalik faoliyatini tashkil etishida ijodkorlik, ijtimoiy faollik layoqatiga ega. Masalan, inson matonati to'g'risidagi kinoserial, haqiqatdan, nafaqat yoshlarni, balki har qanday yoshdagi kishilarni qiyinchilik va to'siqlar oldida bo'yin egmaslikka o'rgatadi. Shuningdek, oilada xarakterning umumiy xususiyatlarini ham shakllantirish mumkin. Buning uchun esa quyidagi usullarni jonlantirib yuborish lozim bo'ladi.

O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'ri ijtimoiy tasavvurlarni o'rgatish yani ularga oilada hamma narsa bo'lismeni ta'kidlash, ularga oilada kelin o'zini qanday tutishi, kelinlik vazifalarini a'lo va hammaga yoqadigan mehribon, shirinso'z bo'lislarni oldindan tayyorlab boorish ota-onaning burchidir. Kelining oiladagi vazifalari:

Yangi turmushga ko'nikish, qaynona-qaynota bilan kelinlik statusiga muvofiq munosabatlarni me'yorlashtirish, qaynaka-uka qaynona-singilari bilan o'ziga nisbatan ijobjiy munosabat uyg'otishi; oilaviy yumushlarni bajarishga jonbozlik ko'rsatish va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borilishi.

Esini tanigandan boshlab ertaklar ruhida, badiiy filmlar, romanlar, afsona, rivoyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarimizda hamma vaqt ham oilaviy hayot haqida to'g'ri tasavvurlar shakllanaverishi muhim emas. Oilaviy axborot vositalari orqali teleko'rsatuvarlar, radioeshittiruvlar orqali yoshlarni ommaviy hayotga tayyorlash borasida berilayotgan materiallarda, ommaviy hayotni bir yoqlama, faqat ijobjiy tomondan talqin qilish hollari ham ko'p kuzatiladi. Bu kabi holatlar ham yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'pchilik yoshlarimiz, ayniqsa muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yoshlar, oila qurish arafasida bo'lar ekanlar aksariyat hollarda o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari o'z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar chunki(oila) ular shu oilada tarbiyalanan ekanlar "eslarini taniganlaridan buyon" ota-onasini nizolashib turishlarini, bir-birlarini humatsiz qilganlarini eslay olmaydilar. Bolalar esa ularturmushning faqat yaxshi, tinch-totuv, ahil-inoqlik, bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, ibratli jihatlaridangina habardor bo'ladilar. Shunday oila qurishni tasavvur qilgan

yoshlarimiz, oila qurbanlaridan so'ng o'zлari kutganidek turmush kechira olmasalar, nikohning dastlabki eng nozik murakkab, qiyin, yangi ijtimoiy vaziyatlar, sharoitlar, bir-birlariga moslashish jarayonlarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolar oldida esankirab qolib oila qurishga "adashganliklari" dan nolib qolishlari mumkin..

O'zbek oilasining ilmiy-ma'daniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olmay turib, oila-nikoh munosabatlarini, oilaviy turmush faoliyatini, uning barqarorligi va faravonligini maqsadga muvofiq yusinda tashkil etish va amalga oshirish mumkin emas. Oila barqarorligi va farovonligining asosi bo'lgan shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asoslash tadqiqotimizning asosiy metodologik tuzilishi sifatida qabul qilingan bo'lib uning atrofiga oila subyekti qaynona-kelin shaxsi va faoliyatining barcha jihatlari: ularning milliy-psixologik va milliy ma'daniy bilimlari, ular shaxsi va faoliyatidagi milliy tipiklik va ijtimoiy tipiklik, o'zbek xalqiga xos o'z-o'zini anglashi va hokazolarda tuziladi. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining muqaddas kitoblaridagi bayoni va sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqinini o'rganishimiz O'zbekiston hududida qadimdan oilaviy turmush ma'daniyati yuksak darajada rivojlangan, deya xulosa chiqarishga imkon berdi. Shuni, qayd etish juda muhimki, qaynona-kelin muammosiga doir yirik asarlarning ko'pi shunchaki ijtimoiy buyurtmani bajarmay, o'zining chuqur e'tiqotini ifodalagan taniqli olimlar tomonidan yozilgan. Ularning asarlarida psixologiya fanining, xususan ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi va etnopsixologiyani rivojlantirish uchun juda ko'p qimmatli faktlar va g'oyalar borAbulxonova, Slavskaya, YU.E.Aleshina, B.G.Ananyev, G.M.Andreeva, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, G'.B.SHoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalar. Mazkur olimlarning shu sohadagi jiddiy asarlari himoyaga tavsiya etilgan bitiruv ma'lakaviy ishining nazariy metodologik asosini tashkil qildi.

Biz amalga oshirgan tadqiqot natijalari dastlabki ilmiy taxminimizni to'la tasdiqlaydi va bitiruv malakaviy quyidagi umumlashgan xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Oilaviy turmush masalalarini o'rgangan uzoq va yaqin chet el psixologiyasi aynan oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganmagan bo'lsada, uning barqarorligini saqlovchi yoxud buzulishlarga olib keluvchi iqtisodi, ijtimoiy-biologik, ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-ma'daniy, xususiy-emotsional, tarbiyaviy-pedagogik omillar ta'sirini o'rganganlar vaoilaviy turmush munosabatlarini yechish bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar, ilmiy xulosa va tavsiyalarni ilgari surganlar. Mazkur ilmiy natijalar biz tanlagan muammo uchun ham ahamiyatli ekanligini e'tirof etgan holda tadqiqotlarimizda ilmiy hududiy xususiyatlar chuqur mujassamlashgan o'zbek oilalari turmushiga qaynona-kelinning munosabatlariga, uning barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining milliy-psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor bilan

yondashdik. Mamlakatimiz psixologlari tomonidan oila va nikoh munosabatlari oilaviy turmushning turli jabhalariga xos muammolar muayyan darajada o'rganilayotgan bo'lsada, lekin oilaviy turmushga xos ba'zi muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Chunonchi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorligi, ajralishlar sonining oshib borishi, unda qaynona-kelin o'rtasidagi munosabatlarda turli omillar bilan bog'liq. Ziddiyatlarning yuzaga kelishi va ularning keskinlashuvi, oilaviy muammo va ziddiyatlarning milliy-hududiy o'ziga xosligi saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolar o'zbek milliy madaniy muhuti shart-sharoitlari ta'sirida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini taqazo etadi.

### **XULOSA**

Oilaviy nizolar shakllanishi va ularni buzilib ketishida qaynona-kelinning fe'l-atvorlarining mos kelmasligi, farzandsizlik, mehr-muhabbatning yetarli emasligi uning budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo'lib, ro'zg'or ishlarining saramjon-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqishida muhim o'rinn tutadi. O'tkazgan tadqiqotlarim, turli xil olimlarning fikrlarini o'rgangan holda qaynona-kelin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda qaynona va kelin oilada bir-birlariga yordam, qo'ldosh bir-birlariga suyanchiq bo'lishi qolaversa har qanday vaziyatlarda bir-birlariga yordam berishlari lozim.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov.I.A Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T: O'zbekiston-1998-yil.
2. Karimov.I.A Xafsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T: O'zb 1998y
3. Abdurauf Fitrat Oilal Tosh. Ma'naviyat. 2000.y
4. ova. X.R. SHaxsni ijtimoiy munosabatlarda o'rganishga oid psixologik testlar. 2006-yil.
5. Akramova. G'. A. Abdullayeva.R. M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. 2002-yil.
6. Oila psixologiyasi. SHoumarov. T:2006-y.